

**RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARIGA BIR NAZAR”.**

Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University

Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot yo‘nalishi I- bosqich talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:23.09.2025

Revised: 24.09.2025

Accepted:25.09.2025

Mazkur maqolada mamlakatimizda va jahon miqiyosidagi raqamli iqtisodiyotning o‘rni va ahamiyati qisqacha yoritilib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR:

*Raqamli Iqtisodiyot,
Raqamli texnologiya,
Ijtimoiy farovonlik,
Elektron boshqaruv,
Telekommunikatsiya,
Modernizatsiya, Virtual
muhit*

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Turli sohalarda o‘zgarishlar va rivojlanishlar jaddalashib jaxon miqiyosiga olib chiqilmoqda. Shu jumladan, yurtimizda iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bunda yangi texnologiya va inovatsiyalarning o‘rni muhim, albatta. Mana shunday rivojlanish davomiyligida yangi yondashuv va uslublar tadbiqi vujudga keladi. Bunga misol sifatida muhtaram yurtboshimiz Shavkat M.M. boshchiligida ishlab chiqilgan 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoniga

asosan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Shu asosida “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi birinchi navbatda mukammal etib tashkiliy va huquqiy mexanzimlarni ishlab chiqish hamda davlat organlarida shu bilan birga tadbirkorlik subyektlarining muntazam hamkorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarishni, xizmat ko‘rsatishni raqamli texnologiyalar birgalikda qamrab olish, bu borada esa zamonaviy bilimlarni puxta egallagan salohiyatli yosh kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasini ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerika sotsiologi, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchilaridan Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgizamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi.

Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D. Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O. Toffler), “Megaiqtisodiyot” (V. Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I. Niiniluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B. Geyts), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D. Tapskott)¹⁵. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta’riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi V.Ivanov “Raqamli iqtisod – haqiqatimizni to‘ldiradigan virtual muhit” - deb ta’rif bergan.

Axborot jamiyati, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot va uni rivojlantirish masalalari doirasida xorijiy hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari o‘z tadqiqotlarida o‘rganishgan.

Olimlarimizdan A.A.Abduvaliyev, A.B.Bobojonov, S.S.G‘ulomov, B.A.Begalov, A.Sh.Bekmurodov, A.A.Musaliyev, T.Z.Teshabayev, N.Nabiyeva, K.U.Turabayeva, D.N.Raximova, S.M.Xodjayev va boshqa bir qator olimlarning ishlarida milliy iqtisodiyotning raqamlashtirish siyosati doirasida nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘z ifodasini topgan¹⁶.

¹⁵ Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M. Infra-M, 2019 yil.

¹⁶ Bobojonov A.B. O‘zbekistonda axborot mahsulotlari va xizmatlari biznesini rivojlantirishning uslubiy jihatlari.: PhD. dis. iqt. fan. – T.: TDIU, 2018, - 155 bet.;

ASOSIY QISM.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bozor subyektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institutsional tuzilishiga xos xususiyatlarini keltirib chiqarmoqda va bu asosda yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga zarurat tug'diradi.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari faoliyat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o'stirish, ishlarning shaffofligini ta'minlash, mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Nufuzli va xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 % foizga oshiradi va xufyona iqtisodiyotga ham barham beradi. Davlatning o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlarni ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi – bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu soha keng tarmoqda rivojlanib boraversa korrupsiya illatiga ham barham berila oladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Hozirgi vaqtda jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot” ni vujudga keltirdi, kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalarini tashkil etish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi, iste'molchi, xaridorva mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi va shu bilan bir qatorda iqtisodiyotning keng qamrovli rivojlanishiga olib keladi¹⁷.

Shu o'rinda ayta olamizki, jamiyat va iqtisodiy hayotda ro'y berilayotgan jiddiy o'zgarishlarda raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar foydalanuvchilar, hamkor tashkilotlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga

¹⁷ G'. M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.

xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tezroq va osonlashtirish yo'lga qo'yishga imkoniyat yarata olganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulotni va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha sarf xarajatlarni kamaytirishiga ko'maklashadi. Qolaversa, bu korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekanligini aytib o'tdik. Bunga barchamiz teran e'tibor berib anglab olishimiz darkor. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarda ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirishni bir so'z bilan qilib aytganda odamlar turmushini yaxshilash demakdir. Bu borada biz talaba yoshlarga iqtisod ilmini chuqur o'rgatishimiz kerak.

Raqamli iqtisodning shakllanishi muayyan bazaga ega bo'lishi kerak, bu quyidagicha bo'lishi lozim:

- raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- onlayn xizmatlarni kengaytirish;
- fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va onlayn kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish;
- raqamli ekotizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirish.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim¹⁸.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali bevosita ta'lim va ilm-ma'rifatni rivojlantirish imkoniyatlari yanada ortadi. Jadallab borayotgan hozirgi zamonda jahon bo'ylab globallashtirish jarayonlari tobora chuqurlashib ketayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyot ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida juda keng joriy etilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi ko'plab sohalarda va faoliyat turlari jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bir paytda raqamli iqtisodiyotni joriy etish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib turubdi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida

¹⁸ Umarov Omonilla Saydaminovich, "Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil. 8-b.

=====

iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususan korxonalarni transformatsiya qilish hamda oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko‘lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni.
2. Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M. Infra-M, 2019 yil.
3. Bobojonov A.B. O‘zbekistonda axborot mahsulotlari va xizmatlari biznesini rivojlantirishning uslubiy jihatlari.: PhD. dis. iqt. fan. – T.: TDIU, 2018, - 155 bet.;
4. G‘. M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) -T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 372b.
5. Umarov Omonilla Saydaminovich, “Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari”. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil. 8-b.